

Burun – ajoyib mo‘jiza



Bizga turli hidlar yoqadi: gullarning hidi, archanening hidi. Ovqatning yoqimli hidi esa ishtahani ochib yuboradi.

Lekin ba’zi moddalarning hidi insonga yoqmaydi. Bu holatda burun bizni xavf-xatar haqida ogohlantiradi: ovqat achib hidlanib qolgani yoki havoda zaharli gaz borligini bildiradi.



Hid bilish hidlarni sezish qobiliyatidir. Biz hidlarni burun orqali bilib olamiz.



1. Nimalarning hidi yoqimli, nimalarning hidi yoqimsiz bo‘ladi?
2. Siz nimalarning hidini yaxshi ko‘rasiz?





Har bir narsaning o‘z hidi bo‘ladi. Bu hid boshqa narsalarning hididan farq qiladi. Maktabda, ko‘chada ham har xil narsalarning hidi bor.



Ba’zan odamlardan kelayotgan hidga qarab, ularning kasbini bilish mumkin.

1. Kasalxonada nimaning hidi keladi? Novvoyxonada-chi?
2. Bu kasbdagi kishilardan nimaning hidi keladi?



Bo‘yoqchi



Oshpaz



Shifokor



Haydovchi



O‘t o‘chiruvchi



Novvoy



Attor – hidlar bilan shug'ullanuvchi odam. U turli qorishmalar yordamida atirlar, xushbo'y gigiyena vositalari, hatto yeguliklar mazasini boyitadigan qo'shimchalar tayyorlaydi. Masalan, atirgul hidli sovun, qulupnay mazali muzqaymoq, limon mazasi kelib turadigan konfetlarni ishlab chiqarishda mutaxassis attorlar yordam beradi.



Mana bu so'zlarda harflar aralashib ketgan. So'zlarni topping. Bu yerda qaysi so'z ortiqcha?

IRTA

QQOLU

DHI

NUVOS

NRBUU



Tajriba. Mavzu: "O'rtog'ingizning burni hidlarni qanchalik ajrata olishini tekshiring".

1. O'rtog'ingizning ko'zini bog'lab qo'yib, burniga olma, banan, shokolad, piyoz, sarimsoq, non tuting.
2. O'rtog'ingiz bu nimaning hidi ekanini topsin.
3. O'rtog'ingiz bu hidlarni qanday qilib topdi?
4. Xulosa qiling.



Yoqimli va yoqimsiz hidlardan bir nechtasini eslab, ularni ikkita ustun qilib yozing.